

**QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I BO'YICHA HOSIL BO'LGAN SALBIY
FARQNI QOPLASHGA OID XORIJ TAJRIBALARI TAHLILI**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil izlanuvchi

Erkayev Nodir Xudayberdiyevich

Annotatsiya: Mamlakatimizda qo'shilgan qiymat solig'inining soliqqa tortish ma'murchiligi o'rganlan holda ularni soliq solishni tartibiga solish, qo'shilgan qiymat solig'ini takomillashtirish bilan ham bog'liqdir. Maqolada qo'shilgan qiymat solig'i bazasini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari, uni aniqlashdagi ayrim murakkabliklar va muammolar tahlil etilgan, soliq bazasining shakllantirishni takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari qo'shilgan qiymat solig'i bazasini aniqlash va hisoblash yuzasidan kiritilgan o'zgarishlar va qo'shimchalarni qo'llash natijalarga asoslanib tegishli xulosalar shakllantirilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qo'shigan qiymat, qo'shilgan qiymat solig'i bazasi, soliq, budget siyosati, budget, soliq ma'murchiligi, soliq salohiyati, normativ tahlil, soliq yuki, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari.

Kirish: Soliqqa tortish har qanday davlatning moliyaviy siyosatining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, daromadlarni shakllantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda o'sib borayotgan iqtisodiyot sifatida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish hamda QQS ma'muriyati sohasida o'ziga xos chora-tadbirlar va amaliyotlarni qabul qildi.

Qo'shilgan qiymat solig'inинг salbiy farq summasini qoplashning barcha korxonalarga joriy etilishi o'z navbatida chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun xam katta rol o'ynaydi. Sababi qo'shilgan qiymat solig'ini butun dunyo bo'ylab 137 ta davlat qo'llaydi. Xususan Rossiya, Qozog'iston, Turkiya, Yevropa davlatlari va boshqa ko'plab davlatlarning soliq siyosatida ham amalga oshiriladi. Rossiya

Federasiyasida ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgani kabi QQS to‘lovchilari hisobga olingan QQS summasi hisoblangan soliqdan kattaroq bo‘lganda qaytarib olish huquqiga ega. Albatta o‘z navbatida ushbu davlatda ham budgetdan QQSni qaytarishda korxonalar ko‘plab muammolarga duch kelishi mumkin. Avvalo, deklarasiyani to‘ldiriladi va deklarasiya bilan birga QQSni qaytarish uchun Federal soliq xizmatiga ariza topshiriladi. Soliq organlari pulni qaytarish to‘g‘risida qaror qabul qilishdan oldin, taqdim etilgan deklarasiyani kameral tekshiruvidan o‘tkazadilar. QQS deklarasiyasining kameral tekshiruvi odatda 2 oy davom etadi, ammo inspektorlar muddatni 3 oygacha uzaytirish huquqiga ega.

2021-yildan boshlab, agar kompaniyaning qaytarib berish summasi oldingi uch-yil uchun soliqlardan oshmasa va kameral tekshiruvida shubhali operasiyalar aniqlanmasa, kameral tekshiruvi 1 oyda yakunlanishi mumkin. Agar kameral tekshiruvi paytida aniqlashtirilgan va to‘g‘irlangan deklarasiya taqdim etilsa, muddat qaytadan boshlanadi. Tuzatish faqat zarur ma’lumotlarni o‘z ichiga olmasa yoki xatolar soliq summasining kam baholanishiga olib kelgan bo‘lsa, kiritilishi kerak. Shuning uchun, kichik qoidabuzarliklar uchun, masalan, hisob-faktura raqamidagi xato, shunchaki tushuntirish berish mumkin. Odatda, kameral tekshiruvlari tekshiruv binolarida amalga oshiriladi, ammo agar hisobotda to‘lanishi kerak bo‘lgan miqdor ko‘rsatilgan bo‘lsa yoki tekshirish paytida nomuvofiqliklar aniqlansa, inspektorlar korxonaning bino inshoatlari tekshirishga haqli.

Tekshiruv davomida inspektorlarda qo‘srimcha hujjatlarni talab qilish olish huquqi berilgan. QQS hisobotlarini tekshirishda barcha ma’lumotlar almashinushi elektron shaklda amalga oshirilishi kerak. Bizning soliq tizimimizdan farqli jixatlaridan biri agar soliq organlariga zarur xujjatlar qog‘ozda yuborilsa, u taqdim etilmagan deb hisoblanadi. Agar soliq organlari tomonidan so‘ralgan xujjatlar o‘z vaqtida taqdim etilmasa, ular QQSni qaytarishni rad etadilar. Agar hisobotlar xatosiz to‘ldirilgan bo‘lsa va barcha tasdiqlovchi hujjatlar tartibda bo‘lsa, soliq organlari QQSni qaytarishni rad etish uchun qonuniy asoslarga ega emas. Albatta o‘z navbatida savol tug‘iladi, agar hamma xujjatlar to‘liq va to‘g‘ri bo‘lsa QQS qancha muddatda qaytariladi?

- agar soliq xodimlari qonunbuzarliklarni aniqlamasa, kameral tekshiruvi 2 oydan ortiq davom etmaydi. Keyin, 7 kun ichida Federal soliq xizmati rahbari soliqni qaytarish to‘g‘risida qaror qabul qiladi va 5 kun ichida korxonaga xabarnoma yuboradi. G‘aznachilik qaror qabul kundan keyin 5 kun ichida korxonaga pul o‘tkazib beradi.

QQS yoki boshqa federal soliqlar bo‘yicha qarzlarining bo‘lsa, inspektorlar birinchi navbatda bu qarzni to‘laydilar. Agar inspektorlar deklarasiyani to‘ldirishda qoidabuzarliklarni aniqlasa, QQSni qaytarish muddati ikki baravarga oshiriladi. Quyidagi jadvalda Rossiya Federasiyasining soliq kodeksida nazarda tutilgan maksimal muddatlar ko‘rsatilgan. Nazariy jihatdan, har bir bosqich tezroq ketishi mumkin. Ammo, odatda, budgetdan mablag‘larni qaytarishda soliq organlari qonun hujjalarda belgilangan barcha muddatlardan to‘liq foydalanadi. Tovarlarni eksport qiluvchi korxonalarga mamlakatimizdagi kabi Rossiya Federasiyasida ham alohida e’tibor qaratilgan, biroq tovar eksport qiluvchilar uchun QQSni qaytarish tartibi uzoq davom etadi va bundan ham qiyinroq bo‘ladi. Boshqa barcha QQS to‘lovchilari kabi ular faqat hisob-fakturalar asosida hisobga olinadigan QQSni asoslashdan tashqari ular eksportni tasdiqlovchi hujjalarni, ya’ni shartnomalar, bojxona deklarasiyasi, schyot-fakturalar va boshqalarni ilova qilishlari kerak. Shuning uchun eksportyorlar uchun QQSni qaytarish muddati barcha hujjalarni yig‘ish uchun zarur bo‘lgan vaqtga ko‘payadi — 180 kun. Xom ashyo ro‘yxati Hukumatning 2018-yil 18 apreldagi 466-sonli qarori bilan tasdiqlangan – bu neft va neft mahsulotlari, metallar, yog‘och va boshqalar.

Mamlakatimizda ham faqat eksport korxonalariga qaytarishni qoldirib, ichki bozor va import hisobiga hosil bo‘lgan salbiy farq summasini qaytarish tartibini bekor qilish lozim.

Qozog‘iston Respublikasida qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarish soliq kodeksiga muvofiq amalga oshiriladi:

- qo‘shilgan qiymat solig‘ining ortiqcha summasini qaytarish to‘g‘risida so‘rov taqdim etilgan soliq davri uchun jami soliq solinadigan savdo aylanmasining kamida 70 foizini tashkil etuvchi nol stavka bo‘yicha soliq solinadigan savdo

aylanmasini amalga oshirish-ellik besh ish kuni ichida;

boshqa hollarda – yetmish besh ish kuni ichida.

Qo'shilgan qiymat solig'inинг ortiqcha summasini qaytarish muddati qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha deklarasiyani taqdim etish uchun belgilangan muddatdan boshlab o'ttiz kalendar kuni o'tganidan keyin boshlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'inинг ortiqcha summasini qaytarish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- qaytarish uchun taqdim etilgan qo'shilgan qiymat solig'inинг ortiqcha summasining haqiqiyligini tasdiqlovchi soliq tekshiruvi dalolatnomasi;

- Kodeks 152-moddasining 13-bandida nazarda tutilgan holatda tuzilgan soliq tekshiruvi dalolatnomasi bo'yicha xulosa.

Quyidagi xollarda qo'shilgan qiymat solig'inинг ortiqcha summasi qaytarilmaydi:

- quyidagilar uchun belgilangan maxsus soliq rejimlarida budget bilan hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi soliq to'lovchi.

- a. ichik korxonalar;

- b. dehqon yoki fermer xo'jaligi;

- s. qishloq xo'jaligi mahsulotlari, suv xo'jaligi mahsulotlari (baliqchilik) ishlab chiqaruvchilari va qishloq xo'jaligi kooperativlari;

Ortiqcha qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarishning soddalashtirilgan tartibi soliq tekshiruvi o'tkazmasdan ortiqcha qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarishni nazarda tutadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha ortiqcha summani qaytarish talabini ko'rsatgan holda qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha deklarasiyalarni taqdim etgan va qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq to'lovchining qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash huquqiga quyidagi qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari ega bo'ladi. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha deklarasiyani taqdim etish sanasi uchun soliq hisobotlarini taqdim etish bo'yicha bajarilmagan soliq majburiyatি:

- ketma-ket kamida o'n ikki oy davomida soliq monitoringini o'tkazish;

- o'z ishlab chiqarishi bo'yicha mahsulot ishlab chiqaruvchilar, ro'yxatini vakolatli organ va soliq siyosati sohasidagi vakolatli organ bilan kelishilgan holda savdo faoliyatini tartibga solish sohasidagi vakolatli organ tasdiqlaydi;
- xomashyo eksportchilari soliq davrida olingan valyuta tushumlarining kamida 50 foizini konvertasiya qilganda.

Qo'shilgan qiymat solig'inining ortiqcha summasini soddalashtirilgan tartibda qaytarish soliq organiga soliq davri uchun qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha deklarasiyani taqdim etish oxirgi muddat o'tgandan keyin o'n besh ish kuni ichida amalga oshiriladi.

Xulosa va takliflar.

Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritishda soliq va ma'muriy javobgarlik sohasini qisqartirish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. Shu bilan birga soliqqa tortish tizimini va tamoyillarini, soliq to'lovlarining amalga oshirilishini hisobga olish tizimini imkon qadar soddalashtirsak, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda to'g'ri ishslash mexanizmi yuzaga kela boshlaydi va soliqlardan qochish holatlari kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Kodeks (2020) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi - Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi.- 640 b.